

## TA'LIM SOHASINI BOSHQARISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Xudayberdiyeva Dilafuz Abidovna,  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Eshmurzayeva Kamola Ilhom qizi,  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,  
"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada ta'lim sohasini boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari haqida so'z yuritildi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik kengash, kuzatuv (vasiylik) kengashi, oliy ta'lim tashkilotining kengashi, ta'lim tashkilotining rahbari....

Ta'lim sohasini boshqarish, yuqorida ta'kidlaganimizdek O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi 2020 yilning 23 setabrida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun bilan amalga oshiriladi. Ushbu qonun ijrosi, eng avvalo quyi bo'g'in, ya'ni ta'lim tashkilotlari boshqaruvida o'z aksini topadi.

Ta'lim tashkilotini boshqarishni tegishincha quyidagilar amalga oshiradi:

-pedagogik kengash;

-kuzatuv (vasiylik) kengashi;

-oliy ta'lim tashkilotining kengashi;

-ta'lim tashkilotining rahbari.



Ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin. Ta'lim tashkilotlarini boshqarishda va kadrlar tayyorlashda kadrlar talabgorlari ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari, shuningdek xorijiy davlatlar ta'lim tashkilotlarining filiallari yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shaklidagi ta'lim xizmatlari yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e'tiboran ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishga haqli. Ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini ustav va (yoki) boshqa ta'ris hujjatlari asosida yuritadi. Ta'lim tashkilotlari o'quv-tarbiya va o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualariga birlashishga haqli. Ta'lim tashkilotlarida siyosiy partiyalarning tashkiliy tuzilmalarini tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning oliy ma'lumotli malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini, shuningdek aholining oliy ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirish maqsadida mamlakat hududida xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari (markazlari, ta'lim kampuslari) va boshqa bo'linmalari tashkil etilishi mumkin.

Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining bo'linmalari O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi.

Davlat umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari:

-respublika bo'ysunuvida vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishgan holda;

-Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'ysunuvida tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda;

-tumanlar va shaharlar bo'ysunuvida tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda tashkil etiladi.



Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischiylari tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlarini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi ma'lumotlar davlat statistika organlariga, Ta'lim inspeksiyasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining hududiy organlariga taqdim etiladi.

Ta'lim tashkilotlarida o'qitish tilidan foydalanish tartibi "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

Tegishli davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlaridagi o'quv rejalari va o'quv dasturlarining mazmuni, ularni ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta'lim oluvchilarda bilim, malaka, ko'nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;
- ta'lim sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi;
- ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, pedagog kadrlarni va ilmiy xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish, nodavlat ta'lim tashkilotlariga ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyalar (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) berish, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarga apostil qo'yish tartibini belgilaydi;
- pedagogik kadrlarni ta'lim tashkilotlariga ishga qabul qilish va ular faoliyatini baholash tartibini belgilaydi;




- xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga doir ruxsatnomalar beradi;
  - xorijiy davlatlarda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibini belgilaydi;
  - davlat namunasidagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlaydi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlar berish tartibini belgilaydi;
  - eksternat tartibida o'qitishga yo'l qo'yilmaydigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro'yxatini tasdiqlaydi;
  - faqat davlat ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro'yxatini tasdiqlaydi;
  - davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlariga qabul qilish tartibini belgilaydi;
  - davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlarini, shuningdek davlat ishtirokida tashkil etiladigan oliy ta'lim tashkilotlari (davlat ulushi bo'lgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari, qo'shma ta'lim muassasalari, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan ta'lim muassasalari va boshqalar) rektorlarini (rahbarlarini) lavozimga tayinlaydi hamda egallab turgan lavozimidan ozod etadi;
  - ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim tashkilotidan boshqasiga ko'chirish, shuningdek ularni o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibini belgilaydi;
  - ta'lim tashkilotlari reytingini aniqlash tartibini belgilaydi;
  - kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi;
  - mehnat bozori talablarini prognoz va tahlil qilish asosida ta'lim tashkilotlarida kadrlarni tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmalarini shakllantiradi;
  - ta'lim tashkilotlariga nisbatan moddiy-texnik, infratuzilmaviy va parametrik talablarni belgilaydi;
  - darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash hamda nashr etish tartibini, shuningdek ularni yetkazib berishga va ulardan ta'lim tashkilotlarida foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (bundan buyon matnda Ta'lim inspeksiyasi deb yuritiladi) ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayoni, professor-o'qituvchilar tarkibi, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifati ustidan nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradigan, ta'lim sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organidir.



## Ta'lim inspeksiyasi:



-ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, shuningdek ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazadi;



-nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziyalar beradi;



-ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifati monitoringini amalga oshiradi;



-ta'lim tashkilotlarining reytingini aniqlaydi;



-maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga lavozimlar va malaka toifalarini berish jarayonini nazorat qiladi hamda unda ishtirok etadi;



-aniqlangan ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlari yuzasidan tegishli davlat boshqaruvi organlariga va ta'lim tashkilotlariga taqdimnomalar kiritadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarishda va kadrlar tayyorlashda kadrlar talabgorlari ishtirok etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Махаммадиев А. Т., Анварова М. Д. Творческий подход дошкольного преподавателя к образованию // Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 25-28.
2. Махаммадиев А. Т., Каххарова С. М. Мышление, сознание и грамотность современные философские вопросы речевого образования // Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 168-171.





3. Махаммадиев А. Т. Образование-источник новых идей, творческого мышления и нововведений //Профессиональное самоопределение молодежи инновационного региона: проблемы и перспективы. – 2018. – С. 156-157.
4. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi //" Russian" Инновационные подходы в современной науке. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
5. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari //" Germany" Modern scientific research: achievements, innovations and development prospects. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
6. Asatillaevich A. B. The main tasks of teaching a student to youth lesson in relation to specialists //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 8. – С. 123-126.
7. Arziqulova S. Talim-tarbiyada MTM bilan ota-ona hamkorligi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 140-143.
8. Xudoyberdiyeva D. A. Management Of Service Rendering Organizations And Its Own Characteristics //ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2019. – С. 24-25.
9. Zakirova M. J., Abidovna X. D. Effective organization and management of preschool institution activities //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 184-191.
10. Abidovna X. D. THE IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2022. – Т. 4. – С. 57-60.
11. Abidovna X. D. Features of the formation of services industry management //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 7. – С. 142-148.
12. Аббосов Б. А., Худайбердиева Д. А. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЙ" УПРАВЛЕНИЕ" И" МЕНЕДЖМЕНТ" //Проблемы и достижения современной науки. – 2019. – №. 1. – С. 74-75.

